

Date: 21st October-2025

**“MA’RIFATPARVARLIK” TUSHUNCHASINING MOHIYATI VA TAVSIFI
TAHLILI.**

Jo’raboyeva Ruxsora Muhiddinjon qizi

Ma’rifatparvarlik – jamiyat hayoti, uning ma’naviy-ma’rifiy sohalarida namoyon bo’ladigan jaholatga, ijtimoiy-siyosiy johillikka zid bo’lgan ijtimoiy-falsafiy va ommaviy-demokratik harakatlarni ifodalovchi tushunchadir. Uning maqsadi muayyan jamiyat hayotini g’oyaviy johillik va mafkuraviy zo’ravonlikdan, jaholatparastlikdan ozod etib, erkin tafakkur, ilg’or ma’rifiy faoliyat orqali taraqqiyotning barcha zarur moddiy va ma’naviy yutuqlariga erishishdir.

G’arbda XVIII asrga kelib ma’rifatparvarlik harakatining Fransiyada boshlanishi jamiyatning tub o’zgarishlar uchun yetilganidan dalolat berar edi. G’arbda “Ma’rifatparvarlik” atamasi birinchi bor XVIII asrda ingliz shoiri J.Miltonning “Yo’qotilgan jannat” dostonida qo’llangan bo’lsa ham, u mutlaq qirollik tartibotlari mutlaqlashgan Fransiya zaminida amaliyotga kiritildi. Shuning uchun ham ma’rifatparvarlik harakatining tarixiy chegaralari “Davlat bu – men” deyishgacha borib yetgan Lyudovik XIV davridan boshlab, fransuz burjua inqilobigacha (1789) bo’lgan tarixiy davrni qamrab oladi. Demak, “Ma’rifatparvarlik” atamasi xuddi shu davrga nisbatan qo’llanadi”⁴.

Ma’rifatparvarlik – bu jamiyatda mavjud bo’lgan johillik, mafkuraviy zo’ravonlik, erkin fikrga to’sqinlik kabi illatlarga qarshi yo’naltirilgan ijtimoiy va madaniy harakatdir. Bu harakatning asosiy maqsadi – jamiyatni ilm, tafakkur va ma’naviy yuksalish orqali taraqqiyotga erishishdir. Bu harakat G’arbda, ayniqsa XVIII asrda Fransiyada kuchli namoyon bo’ldi. Ma’rifatparvarlik g’oyasining falsafiy asosi his-tuyg’u (sensualizm)⁵ va ikki asllik (dualizm)⁶ qarashlaridan iborat bo’lib, birinchisi ma’rifatparvarlik harakatining boshlanish davrida, ikkinchisi keyingi yillardagi rivojlanish jarayonlarida ko’proq ahamiyat kasb etgan. Ma’rifatparvarlik harakatiga De Sent-Evremon, A.Bulenvile, Beyl, Melye kabi taniqli allomalar asos solgan bo’lib, keyinchalik Volter, Monteskye, Kondilyak, Lametri, Golbax, Didro, Gelvesiy, Russo, Byuffon kabi zabardast tafakkur egalari tomonidan rivojlantirilgan. Ular ma’rifatparvarlik tamoyillarini butun Yevropa bo’ylab keng tarqalishiga va ommalashuviga muvaffaq bo’ldi. Ma’rifatparvarlik g’oyalari “ma’rifat asri”⁷dan keyin ham keng tarqalib, ijtimoiy-siyosiy, milliy-ozodlik harakatlarining muhim omili bo’lib xizmat qildi.

⁴ Ma’rifatparvarlik//Oyna. 2023, №6. – B.13.

⁵ Sensualizm(lot.sensus–sezgi, his)–bilish nazaryasida sezgilarni bilishning asosiy manbai deb e’tirof etuvchi yo’nalishdir.

⁶ Dualizm(lot.dualis–ikki yoqlama)–bir–biri bilan birlashtirib bo’lmaydigan holatlar,tamoyillar, fikrlash tarzi, dunyoqarash, intilish va g’neseologik tamoyillar yonma–yon mavjudligini targ’ib qiluvchi ta’limotdir.

⁷ Ma’rifat asri–XVII–XVIII asrlarda Yevropada yuzaga kelgan keng qamrovli, inson aql–zakovati, ilm–fan, erkinlik va taraqqiyot g’oyalari asoslangan harakatdir.



Date: 21st October-2025



Kelib chiqishi Yevropaga oid bo'lgan "Ma'rifatparvarlik" ideologiyasi fikr sohasida tub o'zgarishlarga sabab bo'lgan va Yevropani yangi bir davrga olib kirgan. "Ma'rifatparvarlik" deganda, XVIII asrda yuz bergan va natijalari jihatidan Yevropaning barcha hududlarida ta'sirli bo'lgan, an'anaviy tarzda 1688-yildagi Angliya inqilobi bilan boshlangan va 1789-yildagi Frantsiya inqilobi bilan tugagan falsafiy harakat, hamda ayniqsa bu harakat natijasida shakllangan ijtimoiy va siyosiy jarayon tushuniladi"⁸. Altun fikriga ko'ra, "Ma'rifatparvarlik — yangi bir o'zlikka ega bo'lgan aqlning qo'llanilishi orqali o'tmishga oid e'tiqodlar, amaliyotlar, institutlar va tafakkur tizimlariga qaratilgan tanqid, individuallik, taraqqiyot g'oyasi va ilm-fanga bo'lgan ishonch ustunlik qiladigan falsafiy oqimdir"⁹. Shu doirada, Outram tomonidan tushuntirilishicha, "Ma'rifatparvarlik davri faylasuflaridan Mendelssonga ko'ra, Ma'rifatparvarlik — inson aqlining foydalanilishiga doir hali yakunlanmagan va hammaga ochiq bo'lishi kerak bo'lgan bir ta'lim jarayonidir. "Kantga ko'ra esa, Ma'rifatparvarlik — aql orqali va boshqalarning yo'l ko'rsatishisiz "insonning o'zi sabab bo'lgan voyaga yetmaganlik holatidan qutulishidir"¹⁰.

Dekartning "O'ylayman, demak mavjudman" (Cogito, ergo sum) gapi bilan qadrlana boshlagan tanqidiy mulohaza va tafakkur, inson uchun yagona va eng muhim kuch aql deb hisoblangan hamda shu asosda bilimga erishish yo'llarini ko'rsatgan ma'rifatparvarlik falsafasi orqali mavjud hayot tarzi va madaniyat tuzilmasini o'zgartirdi. Ma'rifatparvarlik falsafasi, aqlning ustunligini himoya qilib, uning moddiy bo'lmagan, insoniy muammolarga ham yechim berishiga umid uyg'otdi"¹¹.

"Fikr va harakatlar doirasida, jamiyatlarning tarixiy rivojlanish jarayonida bir burilish nuqtasi bo'lgan ma'rifatparvarlik, insoniyatning so'nggi uch asrlik hayotiga muhr bosgan bir harakatdir".¹²

Ma'rifatparvarlik insoniyat tarixiy rivojlanishida burilish nuqtasi bo'lib, qadimiy an'analar va diniy hukmronlik ustuvor bo'lgan tuzumdan ilm-fan, aql-idrok va tajriba asosidagi qarashlarga o'tishni anglatadi. Ayniqsa, so'nggi uch asr mobaynida ma'rifatparvarlik g'oyalari butun insoniyatning hayot tarziga, ijtimoiy tuzumi va fikrlash uslubiga chuqur ta'sir ko'rsatgan. Bu davrda inson huquqlari, erkinlik, tenglik, bilim olish va taraqqiyot kabi qadriyatlar asosiy masalalar darajasiga ko'tarildi. Shu tariqa, ma'rifatparvarlik insoniyat tarixidagi eng muhim bosqichlardan biriga aylandi.

⁸ Cigdem, A. Aydinlama dusuncesi//Iletisim yayinlari. 2015, №5. — S.25.

⁹ Atiker, E. Modernizm ve Kitle Toplumu//Vadi yayinlari. 1998, №7. — S.16.

¹⁰ Outram D. Aydinlama. — Ankara: Dost Kitabevi, 2007. — S. 57.

¹¹ Karabağ, I. Aydinlama ideolojisinin Dile Yansimlari//Kafkas Universitesi Sosyal bilimler Enstitüsü Dergisi. 2015, №1. — S. 12.

¹² Kizilcelik S. Frankfurt Okulu: Elestirel Teori. — Ankara: Ani yayincilik, 2001. — S. 70.